

“SALTANATNING CHIROG’I” SUN’IY INTELLEKT TIZIMI MISOLIDA OILAVIY ZO’RAVONLIK MONITORINGI TAHLILI

Abduazimov Xurshidbek

Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

xurshidbekabduazimov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15704193>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qozog’istonda ishga tushirilgan “Svet Saltanat” nomli sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimining mazmuni, mexanizmi va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Loyiha marhum Saltanat Nukenova xotirasiga bag’ishlab yaratilgan bo’lib, oilaviy zo’ravonlik holatlarini real vaqt rejimida aniqlash va jamoatchilikka ochiq tarzda yetkazishni maqsad qiladi. Mazkur tashabbus jamiyatda yashirin qolayotgan zo’ravonlikni vizual va kommunikativ vositalar bilan ochib berishga, fuqarolik faolligini kuchaytirishga va qonun ijrosini jamoatchilik nazoratiga olishga qaratilgan. Maqolada bu modelning O’zbekiston sharoitida qo’llanish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, oilaviy zo’ravonlik, jamoatchilik nazorati, Svet Saltanat, real vaqt monitoringi, O’zbekiston.

Annotation

This article analyzes the content, mechanism, and social significance of the “Svet Saltanat” monitoring system launched in Kazakhstan. Dedicated to the memory of Saltanat Nukenova, the project aims to detect cases of domestic violence in real time and publicly disclose them. The initiative seeks to visualize hidden violence in society, enhance civic engagement, and promote public oversight of law enforcement. The article also explores the potential for implementing this model within the context of Uzbekistan.

Keywords: artificial intelligence, domestic violence, public oversight, Svet Saltanat, real-time monitoring, Uzbekistan.

Аннотация

В данной статье анализируются содержание, механизм и социальное значение системы мониторинга «Свет Салтанат», внедрённой в Казахстане. Проект посвящён памяти Салтанат Нуkenовой и направлен на выявление случаев домашнего насилия в режиме реального времени с последующим их публичным отображением. Инициатива направлена на визуализацию скрытого насилия в обществе, активизацию гражданской позиции и обеспечение общественного контроля за исполнением законодательства. Также в статье рассматриваются перспективы применения данной модели в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, домашнее насилие, общественный контроль, Свет Салтанат, мониторинг в реальном времени, Узбекистан.

2025-yilning aprel oyida Qozog’istonda oilaviy zo’ravonlik holatlarini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi “Svet Saltanat” nomli noyob sun’iy intellekt tizimi ishga tushirildi. Loyiha nomi rus tilida “Свет Салтанат” bo’lib, ma’nosi “Saltanatning chirog’i” deganidir. Bu tashabbus texnologik yechimlar yordamida jamiyatda ko’p hollarda yashirin qoladigan oilaviy zo’ravonlik muammosini ommaga ma’lum qilishga qaratilgan. Loyiha mashxur texnologik kompaniya Citix hamda kreativ agentlik GForce Grey hamkorligida amalga oshirilgan bo’lib, Saltanat Nukenova ismli ayol xotirasiga bag’ishlangan. Mazkur sun’iy intellekt asosidagi

platforma har safar mamlakat bo'ylab yangi zo'ravonlik holati haqida xabar paydo bo'lganda maxsus yorug'lik signalini bera boshlaydi.

Qozog'istonda shakllangan ushbu modelning dolzarbligi O'zbekiston sharoitida ham bevosita aks etadi. So'nggi yillarda mamlakatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" maxsus qonun qabul qilingan bo'lsa¹, 2025-yilgi O'RQ-1053-son Qonun maishiy zo'ravonlikdan jabrlanganlarni real himoya qilishni nazarda tutadi². Biroq, muammoning ko'lami hali ham jiddiyligicha qolmoqda. Mahalliy faollar va OAV xabarlariga ko'ra, O'zbekistonda har yili minglab oilaviy zo'ravonlik holatlari sodir bo'ladi. Masalan O'zbekistonda 2025-yil I-choragida 24 ming nafardan ortiq ayolga "Himoya orderi" rasmiylashtirilgan³.

"Svet Saltanat" tizimining asosiy qurilmalaridan biri Almaty shahrida Prezident bog'i ro'parasiga o'rnatilgan yorqin qizil neon yozuvli bilbordir. Ushbu katta neon yozuvda marhum Saltanat Nukenovanning ismi aks etgan bo'lib, u doimiy ravishda yonib turadi. Tizim har gal Qozog'iston ichida yangi bir zo'ravonlik hodisasi haqida xabar aniqlasa, shu neon belgi darhol miltillay boshlaydi. Bu miltillovchi chiroq xavotir signalini ifodalaydi va hodisa ro'y berganini jamoatchilikka yoritadi. Loyiha mualliflari ushbu usul orqali xususiy makonda, ya'ni oila ichida sodir bo'layotgan zo'ravonlikni jamoat oldida oshkora ko'rsatib berishni maqsad qilishgan. Neon belgining signali faqat bu joyning o'zi bilan cheklanmaydi. Balki, ayni vaqtda mamlakat bo'ylab Citix kompaniyasiga tegishli 100 dan ortiq raqamli reklam ekranlarida ham maxsus vidjet ko'rinishida aks etadi. Boshqacha aytganda, har bir yangi holat haqidagi ma'lumot markaziy bilbordga GSM aloqa signali orqali yuborilib, uni miltillatadi, va shu zahoti "Svet Saltanat" vidjeti barcha ulanishdagi elektron panellarda paydo bo'ladi. Bu esa voqeani butun mamlakat aholisiga bir zumda yetkazish imkonini beradi.

Ushbu loyihasining paydo bo'lishiga 2023-yilda Qozog'istonda yuz bergan shov-shuvli voqea, ya'ni 36 yoshli Saltanat Nukenovanning o'ldirilishi olib kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat va undan keyingi jamoatchilik noroziligidir. Saltanat turmush o'rtog'i Kuandik Bishimbayev tomonidan shafqatsizlarcha do'pposlab o'ldirilgan edi. Bu jinoyat jamiyatda katta rezonans uyg'otdi va ilk marotaba aynan oilaviy zo'ravonlik ishi bo'yicha sud jarayoni butun xalq uchun onlayn efirda jonli yoritildi. Voqea ortidan xalq orasida va ijtimoiy tarmoqlarda norozilik to'lqini ko'tarildi. Natijada fuqarolik jamiyati faollari va xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi guruhlar mamlakatda oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonunchilikni kuchaytirishga chaqirib, #3aCалтанат heshtegi ostida kampaniyalar boshladilar. Ushbu jamoaviy bosim o'z samarasini berib, 2024-yil aprel oyida Qozog'iston parlamenti oiladagi zo'ravonlik uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi yangi qonun qabul qildi⁴. Xalq tilida "Saltanat qonuni" deb atalgan ushbu hujjatga muvofiq oilaviy zo'ravonlik endilikda jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmishlar qatoriga kiritildi.

¹ "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" dagi O'RQ-561-son <https://lex.uz/uz/docs/-4494709?ONDATE=12.04.2023>

² "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi to'g'risida"gi O'RQ-1053-son <https://lex.uz/docs/7469379>

³ <https://kun.uz/news/2025/04/30/uch-oyda-qancha-ayolga-himoya-orderi-berilgani-malum-qilindi>

⁴ President Tokayev Signs Laws Aimed at Protecting the Rights of Women and Safety of Children, <https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-berlin/press/news/details/750716?lang=en>

“Svet Saltanat” loyihasi ishga tushirilgach, jamoatchilik va rasmiy doiralarning munosabati asosan ijobiy bo’ldi, chunki u yuqorida tilga olingan muammoga innovatsion yechim taklif etmoqda. Loyiha mualliflarining aytishicha, ushbu tizim yolg’iz texnologik eksperiment emas, balki jamiyatni o’zgartirishga qaratilgan kreativ harakatdir. Saltanatning fojiasi ortidan qabul qilingan qonunlar amalda ishlashi va har bir zo’ravon jazolanishi lozimligi haqida “Svet Saltanat” odamlarga eslatib turadi. Masalan, tizim tarkibidagi Telegram-bot orqali ayollarga “qonun siz tomonda, himoya bor” degan mazmunda manzilli yo’riqnoma beriladi. Ushbu loyiha, kengroq ma’noda, qabul qilingan qonunning ijrosini nazorat qilishda fuqarolik jamiyatining bir mexanizmi bo’lib xizmat qilmoqda ham deyish mumkin.

Loyiha ta’sischilaridan biri bo’lgan Citix kompaniyasi rahbari Yana Shoyning ta’kidlashicha, bu tashabbus unga shaxsan ham juda yaqin, chunki Qozog’istonda ko’plab ayollar kabi u ham oilaviy zo’ravonlikni boshdan kechirgan. Shuning uchun texnologiyalar jamiyat bilan muloqot qilish vositasiga aylanishi mumkinligiga ishonadi va shahar nafaqat jismonan, balki ruhan ham xavfsiz bo’lishi kerak degan g’oyani olg’a suradi⁵.

Loyihaning ijtimoiy samarasini dastlabki oydoyoq kuzatish mumkin bo’ldi. 2025-yil aprel oyida “Svet Saltanat” faolligi davom etar ekan, oyning oxirida jamlangan statistik ma’lumotlar raqamli ekranlarda e’lon qilindi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, 2024-yil davomida Qozog’iston huquq-tartibot organlariga oilaviy zo’ravonlik bo’yicha 100 mingga yaqin ariza kelib tushgan. Ulardan 72 ming holatda himoya orderlari berilgan, sudlarga esa 16 mingta jinoiy ish yuborilgan⁶. Loyiha jamoasi aprel oyi davomida yig’ilgan ma’lumotlar asosida bir oy ichidagi zo’ravonlik holatlari sonini va boshqa statistik ko’rsatkichlarni ham jamoatchilikka taqdim etdi.

Qozog’istondagi ushbu modelni O’zbekiston sharoitida joriy etish masalasi ham katta qiziqish uyg’otadi. O’zbekiston ham keyingi yillarda xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlikka qarshi qonunchilikni isloh qilishda katta qadam tashladi, lekin muammoning ko’lami hali ham jiddiyligicha qolmoqda. “Svet Saltanat” modeli O’zbekistonda ham joriy etilishi mumkin va bu borada katta salohiyat mavjud. O’zbekiston jamiyatida hali-hanuz oilaviy muammolarni oshkor qilishni xush ko’rmaydigan qarashlar mavjud. Ba’zi keksa avlod vakillari “uydagi gapni ko’chaga chiqarish shart emas” degan fikrda bo’lishi mumkin. Shuningdek, oilaviy zo’ravonlik mavzusini ko’tarib chiqqan faollar ayrim hollarda tanqidlarga duch kelgani ham bor gap. Shu sabab, bunday loyihani joriy etishda uni to’g’ri kommunikatsion strategiya bilan taqdim etish muhim. To’g’ri tushuntirish va targ’ibot yordamida loyihani jamiyatga moslashtirish mumkin. Buning uchun texnik infratuzilma (AI modeli, ma’lumotlar integratsiyasi, displeylar)ni mahalliy sharoitga moslashtirish, hukumat idoralari va NNTlar bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish hamda jamoatchilik fikrini to’g’ri shakllantirish zarur bo’ladi. Natijada, O’zbekiston jamiyati ham oilaviy zo’ravonlik kabi og’riqli muammoga qarshi real vaqt rejimidagi kurash vositasiga ega bo’lishi mumkin. Bunday loyiha qonunlarning amalda ishlashini kuzatishda yordam beradi, jabrlanuvchilarga ruhiy dalda beradi va eng muhimi har bir zo’ravonlik holati jamiyat nazaridan chetda qolmasligini ta’minlaydi.

⁵ Иван Жуков, “Свет Салтанат: как социальный проект на основе ИИ борется с бытовым насилием” 2025, <https://forbes.kz/articles/svet-saltanat-kak-sotsialnyy-proekt-na-osnove-ii-boretsya-s-bytovym-nasiliem-539f55>

⁶ “2024 жылы полицияға тұрмыстық зорлық-зомбылық туралы 100 мыңға жуық хабарлама түскен”. <https://informburo.kz/kaz/newskaz/2024-zyly-policiyaga-turmystyq-zorlyq-zombylyq-turaly-100-mynga-zuyq-xabarlama-tusken>

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravlilikdan himoya qilish to‘g‘risida” dagi O‘RQ-561-son <https://lex.uz/uz/docs/-4494709?ONDATE=12.04.2023>
2. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1053-son <https://lex.uz/docs/7469379>
3. President Tokayev Signs Laws Aimed at Protecting the Rights of Women and Safety of Children, <https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-berlin/press/news/details/750716?lang=en>
4. Иван Жуков, “Свет Салтанат: как социальный проект на основе ИИ борется с бытовым насилием” 2025, <https://forbes.kz/articles/svet-saltanat-kak-sotsialnyy-proekt-na-osnove-ii-boretsya-s-bytovym-nasiliem-539f55>
5. “2024 жылы полицияға тұрмыстық зорлық-зомбылық туралы 100 мыңға жуық хабарлама түскен”,
6. <https://informburo.kz/kaz/newskaz/2024-zyly-policiyaga-turmystyq-zorlyq-zombylyq-turaly-100-mynga-zuyq-xabarlama-tusken>.
7. Kun.uz, <https://kun.uz/news/2025/04/30/uch-oyda-qancha-ayolga-himoya-orderi-berilgani-malum-qilindi>